

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV MOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

MUSTAFAYEV JAFAR SHOMIRZAYEVICH

MA'NAVIY MEROS - SINERGETIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Mustafayev Jafar Shomirzayevich

Ma’naviy meros - sinergetik tadqiqot obyektı sifatida 3

Мустафаев Жафар Шомирзаевич

Духовное наследие как объект синергетического исследования..... 19

Mustafayev Jafar Shomirzayevich

Spiritual heritage as an object of synergetic research 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV MOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

MUSTAFAYEV JAFAR SHOMIRZAYEVICH

MA'NAVIY MEROS - SINERGETIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fal824 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turayev Baxtiyor Omanovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'afforova Gulchehra G'ulomjonovna
falsafa fanlari doktori, professor

Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "06"-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24; e-mail: rektor@samdu.uz. Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№_121_raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24;

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "22" noyabr kunida tarqatildi.
(2024-yil "19" noyabrdagi №_121- raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida globallashuv sharoitida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning keskinlashuvi ma'naviy merosga oid g'oyalar tizimini tiklashni har qachongidan dolzarb qilib qo'ymoqda. Ayniqsa, bugungi axborotlashgan jamiyatda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash ketayotgan global makonda, sinovlardan o'tgan ajdodlar merosidagi insonparvarlik tamoyillari orqali bag'rikenglik, millatlararo totuvlikni ta'minlash, diniy va dunyoviy qadriyatlar integratsiyasini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda, ma'naviy merosning vorisiyilgini ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy shakllantirishda mutafakkirlar ta'limotidagi insonparvarona maqsadlarga yo'naltirilgan, ilm-ma'rifat, haqiqatni bilish, o'zlikni anglash, e'tiqod erkinligi, ma'naviy taraqqiyotga oid qarashlarining hozirgi davr yangiliklari bilan uyg'unlashtirib borish zaruratini saqlab qolmoqda.

Jahon ilmiy merosi taraqqiyotida o'rta asr Sharq allomalarining ilmiy-falsafiy ta'limotlari, xususan, axloqiy munosabatlari, tabiat va jamiyat, insonning ijtimoiy mohiyatiga oid qarashlari doirasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, dunyo sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan mutafakkirlar merosidagi insonparvarlik maqsadlariga yo'naltirilgan inson mohiyatiga doir ta'limotlarni sinergetik tahlil qilish orqali vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ma'naviy merosning gumanistik mohiyatini asoslash, milliy yoki umuminsoniy ma'naviy merosga oid yoshlar tafakkur tarzini uyg'otish, inson, uning taraqqiyoti, ma'naviy-madaniy jihatlari bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga mutafakkirlar ma'naviy merosidagi bag'rikenglik, tinchlik, adolat, ruhiy-ma'naviy uyg'unlik, o'zaro hamjihatlikka oid falsafiy g'oyalarni ilmiy tadqiq etish bugungi ilm-fanning zaruriy tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda ma'naviy merosga oid shaxs ma'naviyati, insonparvarlik, ta'lim hamda axloqiy tarbiya ta'limotlarini chuqur sinergetik tahlil etish va uning zamonaviy, yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashdagi o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ta'kidlash joizki, Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham biz jahondagi ilmiy-madaniy tashkilotlarni O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlaridagi shu yo'lda birga ishlash istagini bildirgan olimlar va mutaxassislariga har tomonlama yordam berishda davom etamiz"¹. Zero, ma'naviy merosimizning insonparvarlik tamoyillari o'rta asrlardagi ikki renessans davrida insonparvar g'oyalar asosida shakllangan bo'lib, bugungi kunda allomalarning falsafiy ta'limotlarni har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan chuqur falsafiy tahlil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. –Б. 37.

to'g'risida", 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonning ko'plab tadqiqot markazlarida ma'naviy merosning bugungi sinergetik tahliliga oid tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, sinergetika sohasida U.Otborn, Ye.Dreksler, G.Xaken¹, D.Ratner, M.Ratner, George Sarton, S.Cheyz, Пригожин И, Х.Хукхэм, В.Г.Риндак, N.Taniguchi kabi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, ma'naviyat, milliy yoki umuminsoniy ma'naviy meros masalasida J.Golbrayt, A.Shimmel, U.Rudolf, M.Xotamiy, T.Veblen kabi tadqiqotchilar va olimlar o'z qarashlarida to'xtalib o'tganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan, P.N.Dyachkov, G.G.Malineskiy, V.A.Chernogorova, N.N.Moiseyev, V.N.Romanov, S.P.Kurdyumov A.P.Nazaretyan va boshqalar sinergetikaning taraqqiyotiga hissa qo'shgan bo'lsalar, M.T.Stepanyans, A.A.Xismatulin², L.S.Vasilev, B.V.Kosarev, B.S.Yerasov, S.N.Ikonnikova kabi olim va tadqiqotchilar inson, uning taraqqiyoti, ma'naviy-madaniy jihatlari, ma'naviy meros tahliliga oid tadqiqotlar hamda ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ma'naviy meros va sinergetikaga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O'zbekistonni Birinchi Prezidenti I.Karimov o'z asarlarida yuksak ma'naviyat to'g'risida metodologik fikrlar bildirib o'tganlar³.

¹ Хакен Г. Принципы работы головного мозга: Синергетический подход к активности мозга, поведению и когнитивной деятельности // М.: Per Se, 2001. С.353.

² Хисматулин А.А., Иванов А.А., Олег Федорович Акимушкин (17.02.1929 — 31.10.2010) // Письменные памятники Востока // 1 (14), 2011. С. 300-393.

³ Каримов И.А. Истиклол ва маънавият // – Тошкент: Фан, 1994; Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч // – Тошкент: 2008.

Olimlardan I.Mo‘minov, M.Xayrullayev, M.Boltayev, H. Aliqulov, M.Baratov, A.Erkayev, E.Yusupov, R.Nosirov, M.Mirtojdiyev, T.Normurodov, R.Bahodirov, A.Qayumov, H.Hamidov, R.Bekmirzayevlar milliy ma’naviy merosimizning turli qirralari va sohalarida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shuningdek, sinergetika ilmi mamlakatimiz ilmi-fanida yangi soha hisoblanib, hozirgi kungacha uning taraqqiyotida B.Turayev¹, Sh.Qo‘shoqov, D.Bozorov, B.Rahmonov va M.X.Ergasheva, I.Rizayev, Z.Muminova, H.Ashurmatov va boshqa olim hamda tadqiqotchilar tomonidan samarali ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mazkur tadqiqotlarda ma’naviy merosga doir falsafiy qarashlar hamda sinergetikaning falsafiy xususiyatlari yoritib berilgan. Biroq, ma’naviy merosning sinergetik tahlili yaqqol kompleks tarzda tadqiqot obyektiga aylantirilmagan. Aynan ushbu jihat tadqiqotimizning dolzarbligini tashkil etadi. Demak, dissertatsiya mavzusi doirasidagi muammo ilk bor tadqiq etilishi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son “O‘zbekistonda ijtimiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning fasafiy asoslari” nomli tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalqimiz ma’naviy merosining bugungi kundagi ahamiyatini sinergetik metodologiya asosida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yoshlarda ma’naviy merosga asoslangan yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda sinergetik beforkatsion jarayonning uzluksizlik va uzluksizlikning birligi tamoyili vositasida isbotlash;

turli davrlarda yuz bergan ijtimoiy omillar ta’sirida ma’naviy merosning falsafiy tafakkur taraqqiyotiga identikligini (o‘z-o‘ziga mosligini) ta’minlaganligi sinergetik tamoyillar asosida ochib berish;

ma’naviy meros targ‘ibotida shaxsning optimistik ruhiy barqarorligini yuzaga chiqarish, uning zaruriy jarayon ekanligi tafakkurning ontogenetik xususiyati asosida mantiqiy dalillash;

ma’naviy merosning yoshlar yuksak ma’naviy tafakkurini shakllantirish, ularning uzluksiz va nochiziqli jarayon ekanligini sinergetikadagi xaos va entropiya tamoyili orqali asoslash.

Tadqiqotning obyekt sifatida xalqimizning ma’naviy merosi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti xalqimizning milliy ma’naviy merosini sinergetik qonuniyatlar hamda tamoyillar asosida tadqiq etish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada sinergetik tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, induktiya va deduktiya, sinergetik attraktor, ko‘p variantlilik, ko‘p omillik, nochiziqlik, konstruktiv, modellashtirish kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

¹ Тўраев Б.О ва бошқ. Сinergetика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши // -Тошкент: “Наврўз”, 2017. 286-б.

yuksak vatanparvarlik tuygʻusini yoshlarda maʼnaviy meros orqali shakllantirish sinergetik befurkatsion jarayon ekanligi uzluksizlik va uzluksizlikning birligi tamoyili vositasida isbotlangan;

turli davrlarda ijtimoiy omillar maʼnaviy merosning falsafiy tafakkur taraqqiyotiga identikligini taʼminlaganligi kelajakning bugunga taʼsiri tamoyili asosida ochib berilgan;

maʼnaviy meros targʻibotida shaxsning optimistik ruhiy barqarorligi zaruriy jarayon ekanligi tafakkurning ontogenetik xususiyati asosida mantiqiy dalillangan;

maʼnaviy merosning yoshlar yuksak maʼnaviy tafakkurini shakllantirishdagi uzluksiz va noxiziqli jarayon ekanligi xaos va entropiya tamoyili orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maʼnaviy merosning dialektik, sinergetik, tolerantlik asoslari, obyektiv va subyektiv omillari sharhlangan hamda uni ilmiy asosda oʻrganishning komparativistik mezonlarini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik tavsiyalar berilgan;

maʼnaviy merosning sinergetik tahlili tarixiy-falsafiy yondashuv asosida umumlashtirilib, mantiqiy-funksional xususiyatlari ochib berilgan;

maʼnaviy merosning falsafiy tahliliga sinergetik yondashuvlar hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar asosida muammoni hal qilishga oid nazariy – metodologik, oʻquv-uslubiy, innovatsion mazmundagi mustaqil takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qoʻllanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullarining toʻgʻri tanlanganligi va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda muhokamadan oʻtkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan chiqarilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, maʼnaviy meros taraqqiyotini sinergetik tahlil qilish muammosi yangicha ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda, shuningdek, tadqiqot natijalaridan falsafa, ijtimoiy falsafa, fan falsafasi, maʼnaviyatshunoslik, axloqshunoslik va boshqa fanlarni ilmiy-nazariy va falsafiy jihatdan boyitish va takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, xalqimizning tarixiy madaniy-merosi, milliy qadriyatlarini targʻib qilishda, yoshlar bilan ishlash tashkilotlarining, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatida va maʼnaviy targʻibot markazlarining maʼnaviy-maʼrifiy ishlarda, mahallalarda, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy rivojlanishi, madaniy merosni tadqiq etishga bagʻishlangan maqsadli dasturlar ijrosini taʼminlashda, muayyan soha kadrlari malakasini oshirish, shuningdek, milliy istiqloq gʻoyasi va mafkurasiga oid turkum risolalar nashr etishda, “Falsafa”, “Ijtimoiy falsafa”, “Fan falsafasi”, “Maʼnaviyatshunoslik” fanlarining mavzularini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maʼnaviy merosning sinergetik tahlili boʻyicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

yuksak vatanparvarlik tuygʻusini yoshlarda maʼnaviy meros orqali shakllantirish sinergetik befurkatsion jarayon ekanligi uzluksizlikning birligi tamoyili vositasida isbotlanganligiga oid taklif-tavsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi Maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2023-yilga moʻljallangan chora-tadbirlar dasturining “Milliy qadriyatlar, maʼnaviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targʻiboti” nomli VIII-yoʻnalishida belgilangan “Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-maʼnaviy merosini oʻrganish orqali aholi oʻrtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy oʻzligidan faxrlanish tuygʻularini kuchaytirish” mavzusidagi 43-bandli ijrosini taʼminlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2023-yil 10-oktabrdagi 02-22/1115-son maʼlumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda vatanparvar barkamol avlodni tarbiyalashda, yoshlarda vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning oʻrni toʻgʻrisidagi bilimlar va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligi oshishiga xizmat qilgan;

turli davrlarda ijtimoiy omillar maʼnaviy merosning falsafiy tafakkur taraqqiyotiga identikligini taʼminlaganligi kelajakning bugunga taʼsiri tamoyili asosida ochib berilganligiga oid nazariy va amaliy taklif-tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar instituti hamda Yevropa Ittifoqi tomonidan “ERASMUS+ dasturining **561624 – EPP - 1-2015 - UK-EPPKA2 - CBHE-SP – ERASMUS + CBHEIMEP** Oʻzbekistonda Oliy taʼlim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli amaliy grant loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 22-sentabrdagi 590/02-son maʼlumotnomasi). Natijada, oliy taʼlim tizimini xalqaro darajaga koʻtarish tendensiyasi va rivojlangan davlatlar tajribasini milliy taʼlimga joriy qilishga xizmat qilgan;

maʼnaviy meros targʻibotida shaxsning optimistik ruhiy barqarorligi zaruriy jarayon ekanligi tafakkurning ontogenetik xususiyati asosida mantiqiy dalillanganligiga doir takliflar-tavsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi Samarqand viloyati “Imkon” fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson taraqqiyoti markazining 2022-yilda bajarilgan “Mahallalarda yoshlarni diniy ekstremizm va missionerlik taʼsiriga tushib qolishning oldini olishda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yoʻlga qoʻyish” mavzusidagi 22/01/01-raqamli amaliy grant loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlashda foydalanilgan. (Samarqand viloyati “Imkon” fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson taraqqiyoti markazining 2023-yil 28-sentabrdagi 28/09-son maʼlumotnomasi). Natijada, mahallarda yoshlarning diniy ekstremizm va missionerlik taʼsiriga tushib qolishni oldini olishda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yoʻlga qoʻyishda, ommaviy madaniyat niqobidagi turli tahdidlarga qarshi kurashda yoshlar maʼnaviy merosimizdan maʼnaviy tafakkurini yuksaltirish yoʻlida foydalanish haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qilgan;

maʼnaviy merosning yoshlar yuksak maʼnaviy tafakkurini shakllantirishdagi uzluksiz va nochiziqli jarayon ekanligi xaos va entropiya tamoyili orqali asoslanganligiga doir nazariy va amaliy taklif-tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yilda efirga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishining dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat

teleradiokompaniyasining 2023-yil 26-sentabrdagi 01-07/323-son ma'lumotnomasi). Natijada, bugungi globallashtirilgan va axborotlashgan jamiyatda ma'naviy merosning sinergetik tahlili yuz berayotgan jarayonlarning ahvoli va istiqbolli yo'nalishlarining mamlakatimiz yoshlari ma'naviy tafakkuriga foydali ta'sir ko'rsatishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola (shundan, 5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ma'naviy meros va uni o'rganish metodologiyasi**" deb nomlangan birinchi bobida ma'naviy meros tushunchasi, mohiyati va qonuniyatlari, ma'naviy merosning qadriyatlar tizimidagi o'rni, sinergetik mohiyati, ma'naviy merosning ijtimoiy jihatlari Uyg'onish davri mutafakkirlari misolida sinergetik tahlil etilgan. Ma'naviy meros o'ziga xos qadriyatlar tizimini vujudga keltiradi. Jamiyatdagi barcha soha va tarmoqlarning o'zaro aloqadorligi o'zaro uyg'unlik, ichki yaxlitlik va uning evolyutsiyasini shakllantiradi. Chunonchi, ma'naviy meros zamiridagi haqiqat, adolat, ezgulik, go'zallik, ma'rifat, saxovat kabi barcha milliy qadriyatlar inson ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Sharq estetik tafakkurida ma'naviy merosning qadimiyligi, buyuk ajdodlar o'tmishi va taqdirini yoritish, zamondoshlar obrazini tasavvurda gavdalantirish, yoshlarni yuksak olijanoblik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan birga, bugungi davrning ma'naviy talab va ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtirgan barkamol asarlar yaratish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Bugungi zamon shiddati inson hayotida ma'naviy merosning naqadar muhim ekanligini, insonni axloqsizlik, odobsizlik, ma'naviy qashshoqlikka qarshi kurashishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunonchi, "...ma'naviyat yo'qolgan joyda insonda hayvoniy hislatlar ildiz otib, yovvoyilik, vahshiylik, jaholat va xurofot kuchayar ekan¹, inson o'z aslini yo'qotishi mumkinligi ayondir. Aynan, ushbu

¹ Комилов М. Маънавият қалб нажоткори // Қорақалпоғистон тонги. 2022 йил 19 феврал. №7 (1484).

jihatlarning oldini oluvchi eng maqbul vositalardan biri ma'naviy merosning ilm sarchashmasidan bahramand bo'lish barobarida uni barchaga to'g'ri singdirishdir.

Bugungi globallashuv sharoitida ma'lum xalqni o'ziga tobe qilishni istagan g'arazli kuchlar avvalo uni o'zligi, tarixi, ma'naviyati va madaniyatidan judo qilishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Zero, ma'naviy jihatdan zabt etilgan har qanday xalqni madaniy-ma'naviy taraqqiyotini to'xatib qo'yish mushkul emasdir. Zero, Konfusiy o'z imperatoriga "Xoqonim, agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo'lsangiz, dastavval o'sha yerda yashayotgan xalqni o'z tarixi madaniyatidan mahrum eting, ma'naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o'raladi va sizga qarshilik ko'rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi"¹, - deb ta'kidlagan. Shunday ekan, mamlakat farovonligi o'z ajdodlari ma'naviy merosiga sodiq bo'lgan yoshlar qo'lidadir.

Ilmiy tadqiqotlarda IX-XV-asrlar Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida o'ziga xos ikki "Renessans" (Uyg'onish) davri bo'lganligi takror e'tirof etilib dunyo olimlari tomonidan tan olingan. Bu davr ko'hna Movarounnahr yoxud Turon zaminida ma'naviyat va ma'rifatning g'oyat gullab-yashnagan davri bo'lganligi, uning ontologik, gnoseologik hamda falsafiy jihatlariga alohida tadqiq etilgani diqqatga sazovor. Chunki, bu davrda yetuk qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, tarixnavis muarrixlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqqan bo'lib, falsafaning turli sohalarida fundamental asarlar yaratishgan. Aynan yurtimizda yetishib chiqqan ilm ahli dovruq'ining tez orada butun Sharqqa yoyilishi allomalarimizning dastlab Bag'dodda ya'ni, "Bayt ul-hikma" (Donolar uyi)da tahsil olib o'z ilmlarini rivojlantirganligi bo'lsa, keyinchalik qisqa muddat bo'lsada Xorazmda faoliyat yuritgan Ma'mun Akademiyasining samarali faoliyati bilan ham bog'liqdir. Natijada, Yunon falsafasi va tabobati, hind hisobi, al-kimyo va ilmi nujumga oid asarlar dastlab arab tilida keyinchalik forsiy va turkiy tillarda ham tarqala boshlandi.

Jamiyatning rivojlanishi ma'naviy merosni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirish orqali to'ldirib boriladi. Biroq, bu jarayon oddiy va bir xilda kechmaydi. Ma'naviy merosning tartib tamoyili, o'zaro bog'liqlik usullari uzluksiz harakatda, rivojlanishda va yangilanishda bo'ladi. Ma'naviy meros serqirra va ko'p qiyofalidir. Uning aniq namoyon bo'lish shakllari va ko'rinishlarining ko'pligi tendensiyalari hamda alternativ shakllari xilma-xilligi bilan farqlanadi. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, har bir yangi avlodning ma'naviy merosi o'tmishdoshlarning tajribasidan kelib chiqib, turlicha sohalarida qo'llanilishiga qarab farqlanadi yoki bir-birini qisman takrorlaydi. Xususan, san'atdagi o'lcham fanlagidan boshqacha namoyon bo'lsa, tabiiy fanlagidagi ma'naviy meros gumanitar fanlagidagi ham farq qiladi. Ma'naviy merosda vorislik tushunchasi ham keng qo'llanilib, mahalliy yoki dunyo miqyosidagi jarayonlagarda ham ifodalanadi.

Markaziy Osiyoda "Islom madaniyatining oltin asri" sanalmish IX-XII-asrlarda porlagan ilm mash'alasi, suronli chingiziylar bosqinini parchalab, Sohibqiron Amir Temur asos solgan temuriylar saltanatida "Ikkinchi Renessans", ya'ni "Temuriylar

¹Маматқобилов Т., Мусаев М., Жураев Х. Халқимизни ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга сафарбар қилишда маънавий – маърифий ишларнинг роли // – Т.: Sano-standart. 2017. – Б. 15.

Renessansi” davrida qayta porlagan. Aynan Amir Temur va temuriylar davrida olam, borliq, tabiat, jamiyat hamda falsafaning turli sohalariga va ilm-fanga bo‘lgan qiziqishning o‘ssishi, islom ma’naviyatining yuksalishiga, yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishga zamin yaratgan. Shu nuqtai nazardan, Amir Temur va temuriylar davri allomalarning ma’naviy merosini ilmiy tahlil qilish taraqqiyotimizda boshlanayotgan yangi davrga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shiladi.

XV-asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat yurtimizda Ikkinchi Uyg‘onish, ya‘ni ma’naviy merosning ontologik, gnoseologik va falsafiy-sinergetik jihatdan Ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar ilmiy ijod bilan shug‘ullanishgan. Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab hattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlar xalqimiz milliy-ma’naviy tafakkurini o‘stirishga xizmat qildi¹.

Ma’naviy merosni o‘rganishda faqatgina mavjud, saqlanib qolgan, ko‘zga tashlanuvchan, ko‘pchilikka mashhur, fundamental asarlarni o‘rganish, tadqiq etish bilan chegaralanib qolmasdan, ikkinchi darajali, e’tiborga tushmagan manbalarni, u qadar mashhur bo‘lmagan mualliflarning asarlariga ham e’tibor qaratishga, turli til va lahjalarda yozilgan manbalarga ham diqqatni yo‘naltirishga to‘g‘ri keladi².

Shuningdek, keyingi falsafiy qarashlarda turli darajadagi tashkil qiluvchilar kaos orqali o‘zaro aloqada bo‘ladilar, deb hisoblash ustuvorlik kasb etadi. Notinchlik, turg‘unmas holatida tizim kam kuchga ega bo‘lgan ta’sir-fluktatsiya makrotizimini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, alohida olingan shaxslar faoliyati ham samarali bo‘lishi mumkin. U hamma vaqt ham to‘la namoyon bo‘lavermaydi. Umumiy tendensiyalar ba’zida yutib yuboradi, biroq, ayrim sharoitda alohida shaxs faoliyati hal qiluvchi rolni o‘ynashi mumkin.

Bugungi kunda yurtimizda va boshqa mintaqalarda davlat va siyosat arboblari sa’y-harakatlari, aql zakovati beqaror jamiyatni barqaror holatga keltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib sinergetik xarakter kasb etadi. Shuningdek, xar bir shaxs dunyoda bo‘layotgan jarayonlarga ongli ravishda munosabatda bo‘lishga, sosial tizimga mas’ullik bilan yondashib, uning taqdiriga befarq qaramaslikka olib keladi.

Rivojlanish obyektiv asosdagi universumga bo‘ysunadi, tasodiflar ana shu umumtendensiyalarga ta’sir eta olmaydi, deb qaralgan. Murakkab tizimning rivojlanishi bir tomonga yo‘naltirilgan bo‘lmay, balki turli vertikal va gorizontol yo‘nalishda bo‘lishi mumkinligini, bu yo‘nalish bir necha alternativ yo‘llardan tashkil topishini sinergetika ko‘rsatib berdi. Rivojlanish yo‘llari turlicha ekan, bu

¹ Президент Учинчи Ренессансдан аввалги иккита Ренессанс қачон бўлиб ўтганини маълум қилди// 30.09.2020. <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-uchinchi-renesansdan-avvalgi-ikkita-renesans-qachon-bolib-otganini-malum-qildi>.

² Тураев Б. Маънавий меросни ўрганишда синергетик методологиянинг ўрни. // “Аҳмад ибн Ҳафс Кабир Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ Ренессанси ва ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. -Бухоро. 2022 йил.

jarayon o'ziga xos, o'ziga mos yo'lni tanlab olish imkoniyatini beradi. Bu yo'li inson faoliyatini buzishga emas, balki bunyodkorlikka, tabiat va jamiyatni ardoqlashga, ularga munosabatda ehtiyot bo'lishga chorlaydi.

Evolyutsiyaning yo'li ko'p bo'lsada, taraqqiyotning ma'lum davrdagi maqbul yo'lini oldindan ko'rib, uning qonuniyatlarini, salbiy bog'lanishini aniqlash mumkin. Mana shu jarayon determinizmni yangi bosqichga ko'taradi. Inson o'zining ruhiyatida yashirinib yotgan holatlarni anglab yetadi va o'z imkoniyatlarini ishga soladi.

Dissertatsiyaning **“Ma'naviy meros - sinergetik tadqiqot obyekti”** deb nomlangan ikkinchi bobida ma'naviy meros va uni o'rganishda nochiziqlik va murakkablik tamoyilidan borish, ma'naviy meros tadqiqining ontologik, gnoseologik va metodologik jihatlarini ochib berish, ma'naviy meros mohiyatini tadqiq etish evolyutsiyasi va bosqichlari kabi masalalar yoritilgan.

Azaldan Markaziy Osiyo o'zining boy qadriyat va yozma ma'naviy merosi bilan jahon xalqlarida katta qiziqish uyg'otgan. Ota-bobolarimizning qoldirgan ko'p asrlik an'analari, urf-odatlarini, madaniyati, betakror boy qadimiy merosi jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksalishi uchun katta zamin bo'lmoqda. Ayniqsa, tarixiy-me'moriy obidalar, qadimiy qo'lyozmalar eng katta ma'naviy boylik xazinasini bo'lib, bugungi avlodlarni tarbiyalashda ko'priq vazifasini o'tamoqda.

Madaniy merosda ko'proq umumiylik ustunlik qilsa, ma'naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olsa, ma'naviy meros ma'naviy madaniyat yutuqlarini ham o'z ichiga olishi bilan farqlanadi.

Hozirgi davrga kelib, aniqrog'i XXI-asrda turli fanlarda nochiziqli hodisalar jadal tadqiq etilib tadqiqot obyektiga aylantirilmoqda. Jumladan, tabiiy, ekologik, biologik, genetika, texnika fanlari, iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar hamda boshqa fanlardan kompyuter texnologiyalarining eksperimentlari orqali nochiziqli dunyoning tom ma'noda hayratga soluvchi g'aroyib qonuniyatlari ochib berildi. Bular olimlar tasavvurini chiziqli intuitsiya va chiziqli dunyoni ko'rish qolipidan ancha uzoqlashtirdi. Shu tarzda sohalararo bilimlar sistemasi – determinasiyalangan sinergetikaning vujudga kelishiga zamin yaratildi.

Professor B.Turayev tadqiqotlarida esa, -...aslida sinergetik tafakkur kurtaklari insoniyat tarixida, fan tarixida ancha ilgari, odamzod ilk bor tabiat murakkabliklariga to'qnash kelgan va ularni yechish yo'llarini o'ylab topgan bir davrlardayoq shakllanganligi qayd etilgan¹. Bunda Yer yuzida hayotning paydo bo'lishi va boshqa evolyutsion hodisalar, o'simlik va hayvonot dunyosidagi o'ziga xos hatti-harakatlar, ong va tafakkurning faoliyatidan, jamiyatdagi murakkab sosial hodisalargacha, barchasi nochiziqli jarayonlarga misol bo'la olishligi keltirilgan. Shunday ekan nochiziqli jarayonlarda, tasodifiy tebranish va og'ishlarning ahamiyati katta bo'lib, ular mufyan tizimni tubdan o'zgartirib, butunlay boshqa tizimga aylanishi hamda mazkur tizimda keskin sifatli o'zgarish ro'y berishi ayni to'g'ri qayd etilgan ilmiy tadqiqot xulosasidir.

¹ Тўраев Б.О., Эргашева М.Х., Раҳмонов Б.У., Мўминова З.О., Очилов Ж. Сinergetika: mohiyati, konuniyatlarini va amaliyotda namoish bulishi // Kollektiv Monoqrafiya. Toshkent: “Navruz”, 2017.

Ma'naviy meros biror xalq, millat va uning vakillari tomonidan yaratilib, so'ng umuminsoniyatning ma'naviy boyligiga, merosiga aylanib boradi. Turon zamin xalqlarining o'tmishi, ajdodlar qoldirgan ma'naviy meros bunga misol bo'la oladi. Geosiyosiy jihatdan dunyoda ma'naviy meros xususiyatlari ham vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi. Chunki xalqlarning, millatlarning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati ham sinergetik jarayonlar tizimidan iborat ekanligidir. Bugungi kunda yurtboshimizning sa'y-harakati, aql-zakovati beqaror jamiyatni barqaror holatga keltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu sinergetikaning tamoyillaridan kelib chiqadi.

Hozirgi kunda sinergetika fanlararo tadqiqot metodlarini birlashtirish orqali sohalararo falsafa belgilarini namoyon qilmoqda. Shu boisdan ham sinergetik tadqiqotlarni olib borishning o'zida har bir ongli insonni qiziqtirayotgan savollarga javob izlanmoqda. Bunday savollar jumlasiga koinot nima, koinotning o'lchami qancha, koinotdagi katta portlash qachon sodir bo'lgan, hayot qanday paydo bo'lgan, koinotda inson yagona mavjudotmi, yer yuzidagi aholi qanchagacha ko'payib borishi mumkin, insoniyat xavfli kasalliklarni yenga oladimi, insonni o'zi qanday paydo bo'lgan, ong nima degani, iqlimni nima boshqaradi, qanday qilib bir hujayra butun bir organizmga aylanadi, kabilar kiradi.

Bizningcha, sinergetikada insonning haqiqatni bilish faoliyatida ilmiy yondashuvni ko'pxilliligini ta'minlash masalasi ustuvorlik qiladi. Buni biz V.I.Arshinov, V.E.Voysexovichlarning ilmiy tadqiqotlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Ularning fikricha, "Sinergetika tabiat va jamiyatni o'z-o'zini tashkillashtirish muammosiga oid ilmiy bilimlarni nochiziqli tafakkur va o'zaro tartiblangan tadqiqot metodlari orqali yechimini topishga imkoniyat yaratadi"¹. Bizning nazarimizda, sinergetika falsafiy nuqtai-nazardan ham yangi paradigma hisoblanib, unda inson tabiati, jamiyat va insonni o'z-o'zi haqida fikrlashi hamda mavjudligini his qilishga doir yangi ilmiy fikr-mulohazalar muayyan darajada sistemaga solingan.

Xullas, sinergetikani o'z-o'zini tashkillashtirishning umumiy qonunlari va tamoyillarini o'rganish bilan birgalikda borliqning taraqqiyot yo'li-evolyutsiyani universal xarakterini tadqiq etadi. Bundan sinergetik metodologiyadan foydalanish uni jamiyat va madaniyatdagi o'zgarishlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini anglab olish mumkin. Biroq, sinergetikani mukammalligiga kimlardir ishonmasligini ham inobatga olish zarur. Lekin, umid qilamizki, shuni ta'kidlayotgan odamlarni o'zlari ham bu masalada o'z tanqidiy yondashuvlarini mutloqligiga da'vo ham qilmaydilar. Chunki, sinergetikada shunaqangi muammoli fikrlashni ko'zda tutadigan tafakkuriy xususiyat ham mavjud. Ya'ni "sinergetika falsafaga yangi "ozuqa" beradi, falsafa esa sinergetikaning metodologik manbasi bo'lib qolaveradi"².

Dissertatsiyaning **"Ma'naviy meros mohiyati, taraqqiyoti va istiqbollari"** deb nomlangan uchinchi bobida ma'naviy meros taraqqiyotida tarixiylik va

¹Қаранг: Аршинов В.И., Войсехович В.Э. Сinergetическое знание: между сетью и принципами. Сinergetическая парадигма // М., 2000. – 107-120 с.

²Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси // Ўзбекистон Республикаси ФА И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. –Б.110.

mantiqiylikning sinergetik tahlili, ma'naviy merosni taraqqiyot bosqichlari, inson tafakkuri ruhiy-ma'naviy rivojlanishi falsafiy tafakkur taraqqiyotiga identikligi, ma'naviy merosning barkamol avlod tarbiyasidagi metodologik vazifalarini sinergetik tadqiqi kabi masalalar yoritilgan.

